

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAGI MAHKUM SHAXSLAR XULQ-ATVORINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Xotamov Shuhrat Nosirovich

O‘zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti

dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola, jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkum shaxslar xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga qaratilgan bo‘lib, mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning vazifalari va ilmiy yangiligi, hamda ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: jinoiy jazo, jazo, mahkum shaxs, penitensiar, axloqan tuzatish, axloqan tarbiyalash, xizmat faoliyati, ijtimoiy-psixologiya.

Mamlakatimizda jazoni ijro etish tizimini takomillashtirish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasini ta’minlash, jinoyat sodir etishlarining oldini olish maqsadida ularni axloqan tuzatish bo‘yicha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan “...mahkumlarda qonun talablariga va jamiyatdagi xulq-atvor qoidalariga rioya etish madaniyatini, bilim va ma’naviy-ahloqiy saviyasini oshirishga intilishni shakllantirishga qaratilgan qayta tarbiyalash va axloqan tuzatish jarayonini takomillashtirish” vazifalari belgilanib, jinoyat-ijroiya amaliyotida mahkumlarning huquqlariga rioya etish, ularning sha’ni va qadr qimmatini hurmat qilinishini ta’minlash, kelgusida ozodlikka chiqqanlaridan so‘ng ularni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish uchun axloqan tarbiyalash va mehnat qilishga o‘rgatishning yanada samarali huquqiy asoslarini joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Ushbu mavzusining dolzarbligi va zarurati shundan iboratki, dunyoda mahkum shaxslarni tarbiyalash ular tomonidan sodir etiladigan penitensiar jinoyatlarning oldini olish muammosi barcha davlatlar uchun global va dolzarb ahamiyat kasb etadi va etmoqda. Mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash, ularda huquqiy ongini shakllantirish va rivojlantirish, mahkum shaxslar orasida penitensiar jinoyat uchun jinoiy javobgarlikni muqarrarligini ularning ongiga yetkazish ular tomonidan sodir etilmoqchi bo‘lgan jinoyatlarni profilaktika qilishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlarini himoya qilish, profilaktik xarakterdagi tarbiyaviy ishlar mazmunini axloqiy normalarga asoslangan pedagogic va psixologik mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy psixologiya - kishilarning ijtimoiy guruhlariga birlashishini, guruhiy tavsifni, shaxsning ruhiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy o‘rnatilishini kabilarni tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Avvallari ijtimoiy psixologiyada voqeyilik falsafiy nuqtai nazardan o‘rganilib kelingan, lekin shaxs,

guruh, jamoa munosabatlari qamrab olinmagan. Ijtimoiy psixologiya faniga umumiy psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, etiologiya, kriminologiya, falsafa kabi fanlar asos bo‘lib xizmat qilgan. 19-asrning 2-yarmida ijtimoiy psixologiyani fan sifatida rivojlantirishga ilk urinishlar boshlangan. Jahon jamoatchiligi tomonidan ijtimoiy psixologiya 1908-yildan fan sifatida tan olingan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda AQSH va boshqa mamlakatlarda psixologiya muammolari yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazila boshlandi. Ayniqsa, AQShda Kotorning o‘tkazgan tajribasi, E.Meyoning izlanishlari ijtimoiy psixologiya tarixida muhim rol o‘ynadi. Bu tadqiqotlarga kichik guruhlar asosiy obyekt qilib olingan tajribalar o‘tkazilgan. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida muloqot, muomala qonuniyatlari, shaxslararo munosabat, individual va guruhiiy o‘zaro ta’sir, guruhlarining ichki va tashqi tuzilishi, ularning turlari, tasnifi, ommaviy holatlar va harakatlar, ijtimoiy va milliy ong, mentalitet, milliy qiyofa, harakter, ta’b, an’ana, odat, marosim va boshqalarni tekshiradi. Ijtimoiy psixologiya bir necha sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi: etnopsixologiya, din psixologiyasi, oila psixologiyasi, boshqaruv (menejment) va marketing psixologiyasi, kichik va katta guruh psixologiyasi, modalar psixologiyasi, reklama psixologiyasi, insonni inson tomonidan idrok qilish psixologiyasi, amaliy ijtimoiy psixologiya kabilar.

O‘zbekistonda ijtimoiy psixologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlar asosan mustaqillik davrida yo‘lga qo‘yila boshlandi. Jahonda bugungi kunda jazoni ijro etish muassasalarida mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash bilan bog‘liq nazariy va amaliy muammolarga bag‘ishlangan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, jinoiy jazolarni ijro etish sharoitlarini tubdan isloh qilish, jinoiy jazolarni liberallashtirish bilan bog‘liq tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqish, penitensiar tizimning tarbiyaviy profilaktik samaradorligini oshirishga kompleks yondashish asosida uni takomillashtirishning turli aspektlarini tadqiq qilish, penitensiar tizimdagi tarbiyaviy ishlarga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazolarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish orqali sodir etilmoqchi bo‘lgan jinoyatlarni profilaktika qilishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan birgalikda penitensiar tarbiyaviy profilaktika choralarni ishlab chiqish, mahkum shaxslarni axloqiy tarbiyalashning samarali pedagogik-psixologik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy asoslash zaruriyati mavjud.

Respublikamizda mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash muammosi bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. I.Ismailov, R.Jabborbergenov, M.Z.Muqimova, A.Payziev, Yu.S.Pulatov, N.S.Salaev, Ch.A.Sattorov, M.Sh.Yuldashev va boshqalar jinoyat sodir etgan shaxslarga jinoiy jazoni belgilash va jazoni o‘tash davomida mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash hamda penitensiar jinoyatlarning profilaktikasi masalalarini huquqiy jihatlarini o‘rganishgan. R.Dushanov, B.Sirlijev, L.Tursunov, E.A.Quljonov va boshqalar olimlar tomonidan jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining kasbiy tayyorgarliklari va mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalashning psixologik tomonlari o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) ga a‘zo davlatlarda ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq jazo turini o‘tayotgan mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalashga doir muammolar, penitensiar tizim va unda olib borilayotgan profilaktik tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishning ba‘zi bir nazariy jihatlarini I.N.Arisov, G.P.Baydakov, I.T.Bogatyrëv, Yu.A.Borzenko, A.I.Vasilev, M.A.Efimov E.V.Zautorova, I.R.Kamalieva, V.N.Koxman, A.A.Lakeev, M.P.Melenteva, S.M.Oganesyan, V.Pozdnyakov, N.I.Poliщuk, A.A.Sinichkin, V.B.Spisnadel, M.P.Sturova, V.T.Stukanov, A.F.Sizby, I.A.Yanchuk va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘rganilgan.

Xorijiy olimlardan Lappi-Seppala Tapio, Sakari Cristian Melander, Anttila, Inkeri, Tornudd, Patrik, Lahti- K.Nuotio (Finlyandiya), Viljanen Jukka, Christie Nils, Falck, Sturla, von Hofer, Hanns, Storgaard (Shvesiya), Michael Tonry, Garland David, Andenaes, Johs (AQSh), Roberts, Jilian V., Stalans, Loretta J., Indermaur, David and Hough Mike (Buyuk Britaniya) va boshqalar tomonidan penitensiar tizim va unda olib borilayotgan psixoprofilaktik tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishning ba‘zi bir nazariy jihatlarini o‘rganilgan.

Tadqiqotning maqsadi jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkum shaxslarni axloqiy tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahkum shaxslarni axloqan tuzatish, tarbiyalash va muassasalarga kadrlar tayyorlashning tarixini tahlil qilish;

mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalashda penitensiar tarbiyachi xodimlarning kasbiy-pedagogik psixologik tayyorgarligi masalasini tahlil qilish;

mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalashda psixologik xizmatning roli, o‘rni va ahamiyatini ochib berish;

mahkum shaxslarning axloqan tuzalganligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish, probatsiya bo‘limlarida ro‘yxatda turgan mahkum shaxslarning jamiyatga qayta moslashuvini, ruhiy holatini, aqliy salohiyatini hamda xatti-harakatlarining axloq qoidalariga muvofiqligini o‘rganish va tahlil qilish;

xorijiy davlatlarning mahkum shaxslarni axloqiy tuzatish va tarbiyalashdagi ish tajribasini o‘rganib, tahlil qilib, penitensiar tizimdagi tarbiyaviy ishlar metodikasi samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash mazmuni penitensiar tizimni davrlashtirish xususiyatlariga asoslanib tarbiyaviy-profilaktik jarayonning “mehnat–axloq tuzatish” tamoyili orqali axloqiy majburiyatlarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash asosida boyitilgan;

mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash imkoniyatlari penitensiar tizim kadrlarining konstruktiv muloqot, pedagogik-psixologik tayyorgarlik komponentlari va pedagogik qobiliyatlarni tasniflash asosida kengaytirilgan;

mahkum shaxslarni axloqan tuzalganlik va tarbiyalanganlik mezonlari axloqan tarbiyalanganlik ko‘rsatkichlari hamda mahkum shaxslarning psixologik portretiga muvofiq keluvchi shaxsning xulqiy xususiyatlarini namoyon etishga moyilligini belgilovchi omillarni hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlarning axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari penitensiar tarbiya usullarini ijtimoiy muhitni imitatsiya qilish jarayonlariga uyg‘unlashtirish asosida kengaytirilgan.

Mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash keng tushuncha bo‘lib, avvalo, ushbu muammoga yuristlar murojaat etishgan va bu muammo yuristlarning o‘rganish va tadqiqot ob’ekti bo‘lgan. Mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash to‘g‘risida fikr yuritilganda “axloq” tushunchasiga falsafaning kategoriyasi sifatida qaraladi. Axloq tuzatish tushunchasi bilan tarbiyalash tushunchasida o‘zaro umumiylik mavjud, lekin aynan emasligi asoslangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksida jazolar tizimida axloq tuzatish ishlari asosiy jazo turi sifatida ko‘rsatilgan va bu boshqa jazo turlari orasida muhim o‘rin egallashi ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganilgan.

Jinoiy jazoni ijro etish muassasalarida mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash bugungi kunda penitensiar tizimda eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligi yangi O‘zbekistonning asosiy talablaridan biri ekanligi asoslangan.

Jazoni ijro etish muassasasi tarbiyachi xodimining mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash jarayonini samarali amalga oshirishi uchun quyidagilarga e’tibor qaratish zarur ekan:

a) tarbiyachida mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalashga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishlikni shakllantirish; b) mahkum shaxslar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishda muhim hisoblangan psixologik jarayonlarni rivojlantirish; v) mahkum shaxslar bilan to‘g‘ri aloqa o‘rnatish ko‘nikma va malakasini rivojlantirish; g) mahkumlar bilan nizoli vaziyatlarda pedagogik-psixologik usullarni samarali qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish; d) mahkumlar bilan muloqotga kirishganda xotirjamlikni saqlash, ruxiy barqarorlikka ega bo‘lish; ye) xodimning xissiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirish; j) xodimlarni muassasadagi stressli vaziyatlarga, ruxiy zo‘riqishlarga tayyorlab borish.

Jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining pedagogik-psixologik tayyorgarligini quyidagi yo‘nalishlarga ajratib, o‘rganildi:

a) xodimlarning ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan mahkum shaxslar bilan ishlashga va ularning salbiy ta’siriga psixologik-pedagogik jihatdan chidamliligini, ruhiy barqarorligini oshirish;

b) xodimlarning pedagogik qobiliyatlarini va mahoratlarini, psixologik sifatlarini rivojlantirish, har qanday murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikma va malakasini shakllantirish.

Jinoiy jazoni ijro etish xodimlarining pedagogik-psixologik tayyorgarligi uning kasbiy mahoratini oshirib borishi bilan bog‘liq. Shuning uchun jazoni ijro etish muassasasi

xodimlarining kasbiy tayyorgarlik tizimiga psixologik tayyorgarlikni maqsadga yo‘naltirilgan holda oshirib borishning usul, uslub va shakllarini kiritish lozimligi ilmiy asoslandi.

Tadqiqotimiz davomida jazoni ijro etish muassasasi psixologining mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash jarayonida tarbiyachilar bilan hamkorligi mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalashda samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Psixologlar mahkum shaxslarni jazoni ijro etish muassasasiga kelishi bilan o‘rganib, ularning psixologik holatlarini barqarorlashtirish va muassasaga moslashtirish bo‘yicha kompleks ishlashi zarur deb topildi. Shuningdek, psixolog tarbiyachi bilan birgalikda mahkum shaxsga samarali ta’sir ko‘rsatuvchi tarbiya usul va vositalarini tanlashi juda muhimligi aniqlandi.

Tadqiqotimiz davomida jazoni ijro etish muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlarning ma’lum bir qismi mutaxassisliklari penitensiar psixolog emasligi aniqlandi. Bu holat mahkum shaxslar bilan ishlash jarayonida qiyinchilikni keltirib chiqaradi.

Tadqiqotimiz davomida mahkum shaxslarni axloqan tuzalganligi va tarbiyalanganligi aniqlash masalasi o‘rganildi. Mahkum shaxsning axloqan tuzalganligining mezoni sifatida uning o‘z aybini tan olishi, jinoyat sodir etganidan pushaymon bo‘lishi, mehnat faoliyatida tashabbus ko‘rsatishi, rejim talablariga rioya qilishi va mahkumlarni tartibbuzarliklardan qaytarishi, tashabbuskor tashkilotlar ishida faol ishtirok etishi hamda yordamchi tadbirlarga ijobiy munosabatda bo‘lishi, ta’lim olishga va kasb egallashga intilishini kiritish mumkin degan fikrga keldik. Mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalashda ijtimoiy psixologik reabilitatsiya muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy psixologik reabilitatsiya mahkum shaxslarga jamiyatda va atrof muhitda adaptatsiya jarayonining samarali kechishiga, ma’naviy-psixologik muvozanatga erishishga, o‘ziga ishonishga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga, to‘liq hayot bilan yashab ketishga yordam beradi. Xususan, dunyo bo‘ylab so‘nggi yillarda ekstremal vaziyatlar (texnogen va tabiiy ofatlar, millatlararo nizolar, terroristik aktlar) soni o‘sib bormoqda. Bu esa yuqoridagi vaziyatlar qurbonlariga tezkorlik bilan psixologik yordam ko‘rsatishga qodir mutaxassislarni tayyorlash zaruratini tug‘dirmoqda. 80-yillar oxirida paydo bo‘lgan jarohatdan keyingi buzilishlar “psixik jarohat” tushunchasi bilan nomlana boshlandi. Inson tomonidan hodisa uning mavjud bo‘lishi uchun xavf tug‘dirayotgandek, normal hayot faoliyatini buzayotgandek va u uchun jarohatlovchi voqeadek, ya’ni ma’lum turdagi iztirob, qayg‘u sifatida idrok etiladi. Psixolog va psixoterapevtlar borgan sayin ko‘proq psixik jarohat olgan odamlar bilan ishlashlariga to‘g‘ri kelmoqda, bularga: majburan ko‘chirilganlar va qochoqlar, garovga olingan qurbonlar, bosqinchilik, otishmalar, qarindoshlari o‘limini, talonchilik bosqinlarini, shuningdek, keng masshtabli tabiiy va texnogen fojialarni boshidan kechirgan insonlar misol bo‘la oladi. Psixologik jarohatning asosiy mazmunini hayot ma’lum tartibga muvofiq tuzilganligi va nazorat qilinishi mumkinligiga ishonchning yo‘qolishi tashkil etadi. Olingan jarohat vaqtni idrok qilishga ham ta’sir ko‘rsatadi va uning ta’siri ostida o‘tgan, hozirgi va kelajak zamonni ko‘rish ham o‘zgaradi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash bu qotib qolgan huquqiy-axloqiy ijtimoiy bilimlar majmuasi emas, balki mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalash jarayoni sifatida o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan, ammo doimo boyitib boriladigan huquqiy-axloqiy bilimlar tizimidir. Jamiyatdagi tizim o‘zgarsa, xodimlarning xizmat faoliyatining mazmuni ham o‘zgarishi mumkin va ular o‘zlarini huquqiy bilimlarini boyitadi hamda takomillashtiriladi va o‘zgarib boradi.

Ijtimoiy rehabilitatsiya – bu insonning ijtimoiy mavqeyi, sog‘ligi, ishga layoqatlilik holatini tiklashga qaratilgan kompleks choralar tizimidir. Ijtimoiy rehabilitatsion faoliyatning turli darajalari farqlanadi: ijtimoiy tibbiy, kasbiy-mehnat, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy rol, ijtimoiy huquqiy va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xotamov Sh.N The Educational Staff of the Penitentiary in the Moral Correction and Education of Convicted Persons Types of Pedagogical Skills//Zien Journals (AQSH Texas). ISSN online: 2770-2367. Volume 12. –2022. –R. 28-31. (Impact Factor: SJIF-5.517).
2. Xotamov Sh.N Measures taken to ensure the protection of the rights freedom and legitimate interest of convicts in moral correction and education of condemned persons and issues of their moral correction// JournalNX ISSN: 2581-4230 Vol. 8. Issue 9, January (Hindiston). –2022. –P. 88-90. (Impact Factor: SJIF-7.223).
3. Xotamov Sh.N. Jazoni ijro etish muassasasi xodimlarining pedagogik-psixologik va kasbiy sifatlarni rivojlantirish muammolar va yechimlar// Zamonaviy ta’lim. Ilmiy-amaliy ommabop jurnali. –№8(117). –2022. –B. 36-42. (13.00.00, №10).
4. Xotamov Sh.N Penitensiar tizimda mahkum shaxsiarning talim olish masalalari (Jahon tajribasi misolida)// O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi ilmiy-amaliy jurnali, –2022. –№3 son. –B. 205-210. (13.00.00, №27).
5. Xotamov Sh.N. Konstitutsiyada jinoiy jazolarni ijro etishda insonparvarlik tamoyillari// O‘zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlar-xalqchil, adolatparvar davlat barpo qilish yo‘lida xalqaro ilmiy-amaliy onlayn videokonferensiya materiallari to‘plami.-T.; O‘zbekiston Respublikasi O‘R.JXU. –2022. –B. 242-246.
6. Xotamov Sh.N. Jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkum shaxslarni penitensiar tizimda ta’lim olish masalalari// “Ilm-fan va ta’limning innovatsion rivojlanishi: hozirgi holati va taraqqiyoti tamoyillari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya to‘plamida chop etilgan. –2022. –B. 293-299.
7. Xotamov Sh.N. Jinoiy jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkum shaxslarni axloqan tuzatish va tarbiyalashda penitensiar tarbiyachi xodimlarning kasbiy pedagogik-psixologik tayyorgarligi// Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik ta’minlash: muammo va yechimlar. mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya to‘plamida chop etilgan. –2022. –B. 174-178.

8. Safarovich Q. O., Jumaboyevich S. O., Maxmaisoyevich S. A. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING INNOVASION KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – C. 821-825.
9. Safarovich Q. O. et al. O'QUVCHILAR XULQ-ATVORI PROFILAKTIKASIDA MAQSADGA YO'NALTIRILGAN TARBIYAVIY TA'SIR MODELI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 382-386.
10. Safarovich Q. O. et al. TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILARNING XULQ-ATVORI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH MASALALARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 367-371.
11. Safarovich Q. O. et al. TEENAGER CHILD PSYCHOLOGY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – C. 454-462.
12. Xotamov Sh.H., Qodirov O.S. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. – S.: Samarqand davlat universiteti, –2023. –B. 346.